

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073

VOLUME-2, ISSUE-11

MAKTABLARDA DAVLAT TILIGA BO'LGAN MUNOSABAT, UNI O'QITISHDA VA O'RGANISHDAGI MUAMMOLAR

Aripova Hilola Azimjanovna

Diplomat International School o'zbek tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatimizda davlat tiliga bo'lgan munosabat, uni o'qitishda va o'rganishdagi muammolar haqida so'z boradi. Bu borada prezidentimiz chiqargan qarorlar ham ko'rsatib o'tilgan. Muammolar ketma ketlikda sanalgan.

Kalit so'zlar: davlat tili, jamiyat, konsepsiya, nutqiy madaniyat, vazifalar,

Hozirgi kunda prezidentimiz tashabbuslari bilan ta'lim boshqa tildagi o'quvchilarning davlat tilini bilish darajasini oshirish maqsadida ko'plab tashabbus va islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoniga muvofiq mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sog'liqni saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish asosiy vazifa qilib belgilangan. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF6084-son va unga ilova qilingan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish KONSEPSIYASIIdagi vazifalar – mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanish; ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish; davlat tili barcha fan tarmoqlariga oid ilmiy tadqiqotlarda ilm-fan tili sifatida nufuzga ega bo'lishi; ommaviy axborot vositalarining audiovizual asarlarida barcha ishtirokchilarning o'zbek adabiy

VOLUME-2, ISSUE-11

tilida so‘zlashiga erishish, davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan faol integratsiyasini ta’minlash, o‘zbek tilining ilm-fan va texnologiyalar sohasida qo‘llanilishi imkoniyatlarini yanada kengayishini ta’minlash uchun ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish kabi vazifalar belgilangan edi.

«O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonda «...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish» [1] muhim vazifalardan biri sifatida ta’kidlangan.

Ma’lumki, davlat tili jamiyatda odamlar uchun katta rol o‘ynaydi. Ushbu til o‘z ona tili boshqa bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘rganish jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi amri mahol. Jamiyatda inson o‘z o‘rnini topishlari uchun avvalo davlat tilini o‘rganishlari, tushunishlari va ravon gapira olishlari kerak. O‘zbek tili grammatikasi o‘ziga xos, boshqa tillardan farq qiluvchi strukturaga egaligi tufayli o‘rganish jarayonida ko‘plab muammolarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. O‘quvchilar grammatikani, ayniqsa, yozuv jarayonida qiyin deb topishlari mumkin va bu oqibatda noto‘g‘ri xabar yetkazilishiga olib kelishi mumkin. O‘zbek tilida grammatika qoidalari aniq va juda ko‘p tushuntirishlarga, dalil va isbotlarga ega. Shunga qaramasdan, ta’lim boshqa tillardagi o‘quvchilarga ularni yodlash va qo‘llash yanada qiyinroq.

O‘zbek tilini o‘rganishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

1. Murakkab grammatika. Ta’lim boshqa tillardagi o‘quvchilar uchun o‘zbek tili grammatikasini o‘rganish qiyinroq. O‘zbek tilida so‘zlashda o‘quvchilar asosan grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Odatda, o‘quvchilar o‘zbek tilida so‘zlashda qo‘srimchalarda, nisbat, , so‘z boyligida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Gap tuzish jarayonida ko‘pincha til o‘rganuvchilar qo‘srimchalarni farqlashda qiyinalishadi va noto‘g‘ri ishlatalilar, ya’ni ba’zan ular kelishik qo‘srimchalarini o‘rnini almashtirib gapirishadi. Muammo ular so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘srimchalarning qanday ishlatishni osongina farqlay olmasligidadir.

2. Auditoriyada ona tilidan ortiqcha foydalanish. O‘rganuvchilar undan foydalanishga majbur bo‘lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o‘rganadilar. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi kerak. Ana shu holatdagina til o‘rganishda o‘sish, talaffuzda raxonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat’iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo‘lga qo‘yilsagina o‘zbek (davlat) tilini o‘zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.

3.O‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik. O‘quvchilarning jamoat joylarida o‘zbek tilida gaplasha olmasligining sabablaridan biri ham ishonchsizlikdir. Ular tadbirlarda yoki davlat tashkilotlari oldida o‘zbek tilida gapiresha olishmaydi. Bu, odatda, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni jamoat joylarida o‘zbek tilida gapireshga yetarlicha rag‘batlantirmasliklari bilan bog‘liq. Odatda, o‘qituvchilar ularni sinfda yoki odamlar oldida o‘zbek tilida gapireshga undashmaydi. Ular o‘zbek tilini o‘rganishadi, lekin so‘zlashishni yetarlicha o‘rganishmaydi. Bu asosan o‘quvchilar sinfda yoki odamlar oldida duch keladigan muammolardan biridir. O‘ziga bo‘lgan ishonch har qanday tilda gapireshda juda muhim rol o‘ynaydi, agar o‘quvchilar o‘zlariga ishonmasa, o‘zbek tilida erkin gapira olishmaydi. Bu faqat o‘zbek tilini emas xorijiy tillarni o‘rganishda ham katta muommolardan biridir. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi butunlay o‘qituvchilarga bog‘liq.. Agar o‘quvchilar nutqda xato qilishdan tashvishlansa, o‘qituvchilar ularga hech kim mukammal tug‘ilmasligini, har kim o‘z xatolaridan saboq olishini o‘rgatishi kerak. O‘quvchilar noto‘g‘ri gapirsalar ham, gapireshda davom etishlari kerak. Chunki ular xatolaridan saboq olishadi va xatolarini qayta-qayta gapireshda tuzatadilar.

3. Tarjima. Bilamizki, til o‘rganish jarayonida notanish bo‘lgan so‘zlearning tarjimasini lug‘atlardan qidiramiz va gap tuzishda turli xil tarjimon botlarga va ilovalarga murojaat qilinadi. Ammo bu har doim ham kutganimizdek natija beravermaydi. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, idiomatik ifodalarni yoki frazalarni tarjima qilish jarayonida tarjima muammolari paydo bo‘lishi mumkin. Idiomalarni tarjima qilish qiyin, chunki idiomani so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Tarjimon butun ma’noni tarjima qilishdan oldin tushunishi kerak. Ba’zi idiomalar tarjima qilingani kabi ma’noga ega emas bo‘lishi mumkin yoki ularni hamma gapda,nutqda ham ishlatib bo‘lmasligi mumkin. Hattoki, o‘sha tilning tilshunoslari ham bu

VOLUME-2, ISSUE-11

muammoga duch keladilar. Shunday ekan, boshqa muammolar singari idioma va frazalarning noto‘g‘ri tarjimasi so‘zlashuv sifatiga putur yetkazishi mumkin.

4. Bitta yoki bir nechta a’lochi o‘quvchining doimiy ustunlik qilishi. Ba’zan boshqalarga nisbatan bilimliroq bo‘lgan o‘quvchilarga darsda yaxshi baholar, ma’lum darajada ko‘proq rag‘batlantirishlar berilsa ham, ularga nisbatan sustroq o‘zlashtirayotgan yoki darsga to‘liq qatnashmayotgan o‘quvchilarni butunlay unutib qo‘ymaslik kerak. Ularni boshqalarga nisbatan ko‘proq ruhlantirib, darsda faol qatnashishlariga imkon yaratib berish kerak .

Xulosa qilib aytganda, hozirgi yoshlarni har tomonlama yetuk, o‘z sohasining kuchli mutaxassisi qilib tarbiyalashda o‘zbek tilini bilish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada maktablarda davlat tilini o‘qitishda bir qancha muammolar mavjuddir. Ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida o‘qituvchilar davlat tilini o‘qitishda yangicha o‘qitish usullaridan foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //http://uza.uz/oz/documents/ zbek-tilining-davlat-tilisifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019
2. Mirziyoyev Sh. Biz kelajagimiznin mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – 189 b.
3. Marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.
4. Musurmonov R. Ta’lim faoliyati sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarning oldini olish – ta’lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
5. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiyl o‘rta ta’lim maktablari ta’lim mazmunini prognostika qilish. Xalq ta’limi” jurnali T.:2020 yil №5